

YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilning yanvar – dekabrda Jizzax viloyati YaHM hajmi joriy narxlarda 15 211,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 5,9 % ga o'sdi.

2019-yil yanvar-dekabr yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 11 126,3 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,7 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 3,0 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish (yanvar-dekabr)

	Mlrd. so'm		2018-yilga nisbatan, % da
	2018-yil	2019-yil	
I. YaHM	12 074,7	15 211,9	105,9
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	11 717,2	14 523,1	105,8
Mahsulotlarga sof soliqlar	357,5	688,8	108,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	11 717,2	14 523,1	105,8
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	6 906,2	8 253,6	104,4
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 860,5	2 544,9	112,7
sanoat	1 155,3	1 588,9	105,8
qurilish	705,2	956,0	123,9
Xizmatlar	2 950,4	3 724,6	104,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	783,1	910,4	103,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	497,4	547,8	104,6
boshqa xizmat tarmoqlari	1 670,0	2 266,4	105,7

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati – 104,4 %, (YaHM tarkibidagi ulushi – 56,8 %), sanoat - 105,8 % (10,9 %), qurilish – 123,9 %, (6,6 %), xizmatlar – 104,8 %, (25,7 %).

2019-yil yanvar - dekabr uchun YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari



Iqtisodiy faoliyat turlari


Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 95,5 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,5 % ni tashkil etdi.

Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 2,1 % punktga kamaydi va hisobot yilida 56,8 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 1,6 % punktga ko'paydi va hisobot yilida 17,5 % ni tashkil etdi.


Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 0,5 % punktga ko'paydi va hisobot yilida 25,7 % ni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018-yil yanvar - dekabr



2019-yil yanvar - dekabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 6,3 % ni (2018-yil yanvar – dekabrda 6,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 3,8 % ni (4,2 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 15,6 % ni (14,3 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**

**2018-yil
yanvar-dekabr**



**2019-yil
yanvar-dekabr**



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
Nashr uchun mas'ul: G'.Mamadiyev
Telefon: (0371) 230-83-42